

DRABLLAR: TUZILISHI VA TARAQQIYOTI

**Kosimova Azizaxon Botirali qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti tabiiy yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasida ingliz tili o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola dunyo adabiyotida, xususan, o'zbek va ingliz adabiyotida drabllarning kelib chiqishi, ularning tuzilishi hamda taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari drabll janrida ijod qilib kelayotgan yozuvchilarning asarlari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Adabiyotshunoslik, adib, drabll, hikoya, kichik hikoya, mitti hikoya, yuproq hikoya, janr, uslub, yo'nalish.

**Аннотация:** В данной статье анализируется происхождение драбблов, их структура и этапы развития в мировой литературе, особенно в узбекской и английской литературе. Кроме того, будут рассмотрены произведения писателей, творящих в жанре драббла.

**Ключевые слова:** Литературоведение, писатель, драббл, рассказ, новелла, жанр, стиль, направление.

**Abstract:** This article analyzes the origin of drabbles, their structure and stages of development in world literature, especially in Uzbek and English literature. In addition, the works of writers who have been creating in the drabble genre will also be considered.

**Key words:** Literary studies, writer, drabble, story, short story, genre, style, direction.

## KIRISH

Jamiyat muntazam o'zgarishda, rivojlanishda bo'ladi. Inson psixologiyasi o'zi taassurot oladigan narsalardagi bir xillikni yoqtirmaydi. Shuning uchun rang-baranglik va muntazam taraqqiy etib borish barcha san'at turlariga xos xususiyatdir. Adabiyot ham san'at turi sifatida mazkur jarayonlarga hamohang yashab kelmoqda. Badiiy asarlardagi strukturaviy o'zgarishlar, mazmuniy va g'oyaviy yangilanishlar tabiiy hamda doimiy holat bo'lib, asarning mukammallik darajasi o'z o'rnida yozuvchining mahoratiga ishora qiladi. Ana shunday mukammallik talab etiladigan zamonaviy, yangi adabiy janrlardan biri drabllardir. Drabll hikoyaning biri turi sifatida paydo bo'ldi va taraqqiyot davomida alohida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'la boshladi. Jahon adabiyotshunosligida drabll bugungi kunda alohida janr sifatida shakllanib ulgurgan.

Adabiyotda hikoya janri qamrovning va ifoda ko'lamining kichikligi bilan yirik janrlardan farqlanadi. Hikoya qisqa tasvirlarda yirik g'oyalarni ilgari surishga, kichik epizodda katta muammolarni ochishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Jahon san'atshunosligida hikoya janrining belgilangan talabidan ham qisqa shakllarda dolzarb g'oyalarni ilgari surish, muhim muammolarni ochib bera olish talab etila boshlandi. Bu harakatlar o'z o'rnida drabllning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. O'z

o'rnida drabllar ham birdan paydo bo'lgan narsa emas. Ularning paydo bo'lishida xalq og'zaki ijodining ham ta'siri seziladi. Dunyo adabiyotida drabllarning vujudga kelishida maqol va latifa janrlari asos vazifasini bajargan. Bu janrlarning ahamiyatli jihati shundan iboratki, maqollardagi umumiy xulosa drabllarda tasvirlangan voqelikning xulosasi bilan o'xshashdir. Bundan tashqari kichik hikoya hamda masal janri ham bir-biriga hamjman va mazmunan juda yaqin hisoblanadi. Drabllar XX asrlardan janr sifatida rivojlanishni va dunyo bo'ylab keng tarqalishni boshlagan bo'lsa, drabllga o'xshash kichik hikoyalar yoki ibratli fikrlar xalq og'zaki ijodida ham yashab kelmoqda. "Maqol va latifa janrlarining mitti hikoyalar vujudga kelishidagi ta'sirini sezish qiyin emas. Bu xalq og'zaki ijodi janrlari barcha qadimiy xalqlar folklorida mavjud". [1.2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Kichik hikoyalar ingliz tilida "flash fiction" deb nomlanib, bu hajman juda qisqa badiiy asar hisoblanadi. Bu hikoyalar xususiyatlari va ularning tasniflari haqida turli manbalarda bir qator fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, bugungi kunda taraqqiy etib borayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi talablarga ixtisoslashgan holda "Umumiy hajmi 280 belgidan iborat bo'lgan hikoya ("Twitterature" nomi bilan mashhur, sababi aynan Twitter ijtimoiy tarmog'iga joylanadigan maksimal belgidir)" [4.1] tarzida baholanadigan asarlar ham mavjud. Biroq bu holatlar adabiy nazariyalar asosiga qurilmaganligi bilan farqlanadi.

Yana bir kichik hikoyachalarga oid qarashlarda "dribble" - bu aynan 50 ta so'zdan iborat kichik hikoya" [4.1] ekanligi ta'kidlanadi. Mazkur nazariy qarash ham adabiyotshunoslar tomonidan umume'tirof etilgan qoidalarga mos kelmasligi bilan ajralib turadi.

"750 so'zdan oshmaydigan hikoyalar "favqulodda asar" (sudden fiction) hisoblanadi" [6.1]. Bu qarash ham biz tadqiq qilayotgan kichik hajmdagi mitti hikoyaning janr talablariga mos kelmaydi. "Mikro - hikoya" (micro - story) esa 1000 so'zni o'z ichiga oladigan hikoya turi hisoblanadi. [7.1]. Mitti hikoyalarni nisbatan fikrlarning bunday turlichaligi kichik hajmli asarlarning taraqqiyot bosqichlari sifatida e'tirof etilishi mumkin. Masalan, "Hajmi 100 ta so'zdan oshmaydigan hikoyalarga esa drabllar nomi berilgan" [5.1] kabi qarashlar, yagona to'xtamga, yagona shaklga kelgunga qadar bosib o'tilgan yo'llardagi izlanishlar, albatta, mukammal nazariyaning yuzaga kelishiga turtki bo'ladi.

Yangi janr bo'lishiga qaramay so'nggi yillarda kichik hikoya janrida ijod qilayotgan yozuvchilar soni ko'paymoqda. Yuqorida sanab o'tilgan hikoyalardan keng tarqalgan turi drabllar hisoblanadi. Jahon adabiyotida XX asrlarda shakllangan kichik hikoyalarga "drabll" nomi beriladi. Drabll so'zi inglizcha "drabble" so'zidan olingan bo'lib, "parcha", "bo'lak" degan ma'noni anglatadi.

"Dastlab, drabll atamasi Monty Pythonning 1971- yilda yozilgan "Big Red Book" asarida keltirilgan bo'lib, unda ishtirokchilar o'rtasida roman yozish bo'yicha so'z o'yini sifatida ta'rif berilgan". [8.1] Drabllning vatani Buyuk Britaniya hisoblanib, kelib chiqishi haqida turli qarashlar mavjud. Lekin drabllarning janr sifatida

rivojlanishi 1980-yillarga borib taqaladi. Aynan shu davrda Birmingem universiteti talabalari o'rtasida tashkillangan so'z o'yini drabllarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shundan so'ng, drabllar ingliz gazeta matnlarida ham ko'rinishni boshlaydi. 1987-yilda "New Times" jurnali asoschisi Stiv Moss tomonidan tashkil etilgan kichik hikoyalar tanlovi ham dunyo bo'yicha drabllarning rivojlanishiga katta xizmat ko'rsatgan.

Angliya yozuvchilariga umumiy hajmi 100 ta so'zdan oshmagan, tugal yechimga ega kichik asar yaratish talabi qo'yiladi va shu tariqa drabllar boshqa qator davlatlarda ham sekin-asta yoyilishni boshlaydi. Drabllar asosan musobaqalar orqali yaralgan bo'lib, musobaqalarda yozuvchilarga qo'yiladigan asosiy talab berilgan mavzuga ma'lum bir vaqt mobaynida 100 ta so'zni qamrab olgan kichik asar yaratish hisoblangan.

"Mitti hikoyalardagi hajm talablari yozuvchilardan so'zlar va belgilarni qisqartirib, ko'proq ma'no ifodalashga majbur etadi hamda kitobxonlarning asl badiiyat namunasidan bahra olish, hayrat lazzatini tuyishlari uchun imkon beradi". [9.65]

"Lekin mitti hikoyalar - drabllarni jahon adabiyotshunosligida alohida janr sifatida emas, balki juda qisqa hikoya (mini - hikoya) sifatida talqin etish hollari ham uchrab turibdi". [10.20]. Lekin adabiy jarayon uchun eng muhimi, shu tipdagi asarlar paydo bo'ldi va kitobxonlar unga qiziqish bildirmoqda. Adabiyotshunoslar esa bu mitti hikoyalarning shakliy va mazmuniy o'ziga xosliklarini tadqiq etishmoqda. "Toshkent - non shahri" qissasining muallifi bo'lgan Aleksandr Sergeyevich Neverov ijodida "Tomchi suv" drablli mavjud. Unda bir chumchuq misolida insonlar har qanday vaziyatda ham qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishga harakat etishi lozimligi yoritilgan:

"O'rmon yonardi. Chumchuq og'ziga suv olib, o'rmon tomon uchar va tag'in daryoga qaytardi. O'rmonning yonishini ilojisiz kuzatib turgan hayvonlardan biri kulib baqirdi:

- Hey, o'rmonni bir tomchi suv bilan qutqarasanmi?

Chumchuq javob berdi:

- Nima qilay, qo'limdan keladigani shu-da!". [2.6]

Yozuvchining ushbu drablli orqali uning mahoratini yaqqol sezishimiz mumkin. Sababi, ushbu kichik asar drabllarga xos bo'lgan uch xususiyatni o'zida jamlagan. Unda berilgan "O'rmon yonardi" jumlasini voqelikning tarixi hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, tarix bizga o'tmishni so'zlaydi. Hikoyadagi bu jumlada o'rmonga o't ketishi tasvirlangan. Ushbu drabllarda yozuvchi obyekt sifatida nega aynan o'rmonni tanlagan? Sababi, o'rmonda daxshatli va kuchli yong'inlar bo'ladi. Shuningdek, ushbu jumla orqali voqelik juda og'ir va qiyin vaziyatni, u yerdagi barcha hayvonlar ilojisiz qolgani tasvirlangan. Yuqoridagi kichik hikoyada berilgan keyingi jumla "nima qilay, qo'limdan keladigani shu-da!" voqelikning kutilmagan yechimi hisoblanadi. Sababi, yozuvchi o'rmondagi yong'inni o'chirishga harakat qiladigan jonzot sifatida bejizga chumchuq obrazini tanlamagan. O'rmonda boshqa kuchli hayvonlar bo'lishiga qaramay, barcha

jonzotlar ichida eng nozik va kuchsizi chumchuq hisoblanadi. Yozuvchi ushbu asari orqali o'rmon yonishiga chumchuqni ilojsiz kuzatib tura olmasligini tasvirlab, zid belgilar orqali mahorat bilan yoritib bergan. Bundan tashqari, butun o'rmondagi hayvonlar o'rmon yaqinida daryo bo'lishiga, ya'ni o'tni o'chirishga imkoniyat mavjud bo'lishiga qaramay, o'z uylari yonayotganini, shunchaki, ilojsiz kuzatib turishi, birgina chumchuq og'zidagi bir tomchi suv bilan o'rmondagi yong'inni bartaraf etishga harakat qilgani voqelikning kutilmagan yechimidir.

Asar qisqa va tugal voqelikga ega. O'rmonda sodir bo'lgan kichik bir epizod asarning voqeligini tashkil etadi. Mazkur qisqa manzara orqali yozuvchi vatanparvarlik, mardlik, mas'uliyatlilik g'oyalarini ilgari surgan. Birgina chumchuq obrazi orqali muammolar qarshisida harakatsiz to'xtab qolgandan ko'ra, imkon qadar muammo yechimiga yo'l topish lozimligi ta'kidlanadi.

Bu drabllni tahlil qilar ekanmiz chumchuq obraziga yanada e'tibor bersak. Chumchuq uchish qobiliyatiga ega bo'lib, har qanday xavfli hududdan uchib keta oladi. O'rmondagi bunday vaziyatdan o'z jonini saqlash maqsadida u yerdan uchib ketishi mumkin edi. Ammo, u o'z vatanini tashlab keta olmadi, boshqa kuchli hayvonlardan farqli ravishda u o'z o'rmonini qutqarishga harakat qildi. Aleksandr Sergeyevich Neverov tomonidan yaratilgan ushbu drabllning asosiy g'oyasi har qanday og'ir vaziyatda ham barcha insonlar birdek harakat qilib, bu dunyoni qutqara olishlari mumkinligini anglatadi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA.** Jahon adabiyotida mashhur yozuvchilar tomonidan juda qisqaligi bilan e'tiborni tortadigan drabllar yaratilgan. Jumladan, ingliz yozuvchisi Ernest Hemingvay qalamiga mansub faqatgina 6 ta so'zdan iborat drabll mavjud.

“For sale: baby shoes, never worn”. [3.4] (“hech qachon kiyilmagan chaqaloq oyoq kiyimi sotiladi”).

Oddiy tuyulgan, lekin juda katta ma'no yashiringan ushbu kichik asarda drabllarga xos bo'lgan barcha xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, qisqacha tarix berilganligi, kutilmagan yechim borligi hamda qisqa voqelikning berilishidir. Ushbu drablldagi qisqacha tarix “never worn” ya'ni “hech qachon kiyilmagan” jumlasini hisoblanadi. Sababi, ushbu jumla orqali kitobxon nega aynan “kiyilmagan chaqaloq oyoq kiyimi sotiladi” savoliga javob izlaydi. Bunga ko'plab sabablarni keltirishimiz mumkin. Masalan, yangi oyoq kiyimlar ko'pligi sababli yoki muhtojlik sababli sotilayotgan bo'lishi mumkin. Lekin voqelikning asl zamirida o'z farzandidan ayrilgan ona farzandining oyoq kiyimini sotayotgani tasvirlangan. Drablldagi “baby shoes”, ya'ni “chaqaloq oyoq kiyimi” jumlasini esa kutilmagan yechim hisoblanadi. Yozuvchining drabll yozish mahorati yuqori ekanligini uning ushbu mitti asariga chaqaloqni obraz sifatida olganligidan bilishimiz mumkin. Buning asosiy sababi shundaki, chaqaloq obrazi boshqa personajlarga qaraganda kutilmagan tarzda ta'sirli yetib boradi. Masalan, bu drabllni “hech qachon kiyilmagan ayollar oyoq kiyimi sotiladi” desak, hech bir kitobxon ta'sirlanmaydi hamda hech qanday his-tuyg'u his qilmaydi. Va

nihoyat, asardagi farzandidan ayrilgan onani vafot etgan bolasining kiyilmagan oyoq kiyimini sotishga qaror qilgani hikoyaning eng qisqa va tugal yechimi hisoblanadi. Sababi, ona farzand dog'i nima ekanligini, uning achchig'ini va hattoki bu og'riqning yechimi sifatida farzandini kiyilmagan oyoq kiyimini sotish deb biladi. Bir so'z bilan aytganda kichik hikoyalar qisqa bo'lishiga qaramay juda katta ma'no- mazmunga ega bo'lishi kerak.

XULOSA. Shunday qilib, jahon hamda o'zbek adabiyotshunosligiga yangi janr sifatida kirib kelib kitobxonlar orasida ommalishishga ulgurgan drabbllar yangi va zamonaviy janr hisoblanib, kichik asar bo'lishiga qaramay katta maydonni egallab kelmoqda. Tuzilishi jihatidan boshqa janrlardan keskin farq qiluvchi ushbu janrda ijod qilayotgan ijodkorlar va kitobxonlarni bir maqsadga yo'naltirmoqda. Eng quvonarli jihati, o'zbek va ingliz adabiyotidagi mashhur yozuvchilar tomonidan drabbll sohasida ham ijod qilindi hamda keyingi davr yosh qalamkashlari uchun keng yo'l ochildi. Xulosa o'rnida aytish mumkin-ki, adabiyotshunoslikda tarbiyaviy jihatdan ahamiyatga ega bo'lgan drabbllar muhim sanaladi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Masuma Obidjonova. Genesis of flash fiction genre in the world literature. "International Journal on Integrated Education". 2019
2. Драббллар. Dunyoning eng kichik hikoyalari. "O'qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2018. — 6 б.
3. Garson O'Toole "For Sale, Baby Shoes, Never Worn". (January 28, 2013).
4. Maddie Crum. "Twitter Fiction Reveals. The Power of Very, Very Short Stories". The Huffington Post. (May 7, 2015).
5. Graham "Flash fiction - all you ever wanted to know, but were afraid to ask..." The Bridport Prize. (March 8, 2013).
6. Becky Tuch. "Flash Fiction: What's It All About?". The Review Review.
7. Christopher Kasperek, "Two Micro-Stories by Bolesław Prus", The Polish Review, 1995, no. 1, pp. 99-103.
8. <http://www.ansible.co.uk/writing/drabbles.html>
9. Sustana, Catherine. "Flash Fiction Definition and History." ThoughtCo, 2019. P.65.
10. Жилина Л. В. Короче! Short-short story в современной японской литературе // Окно в Японию. 2005.